

PAPER

PSIXOFIZIOLOGIK HOLAT TASVIRLARIDA BADIY MAHORAT TALQINLARI

Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi¹, * and Ashurova Oyshaxon Inom qizi²

¹Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi

²Davolash ishi, 1-kurs 4124 guruh talabasi

* abdurahimova772@gmail.com

Abstract

Maqolada psixofiziologik holat masalasi yozuvchi Qo‘chqor Norqobil qissalari misolida tadqiq etilgan.

Key words: psixologiya, psixofiziologiya, jest, mimika, gallyutsinatsiya, obraz, ruhiyat.

Badiiy asardagi voqelik, obrazlar his-tuyg‘ularining jonliligi hamda ta’sirchanligini oshirishda badiiy tasvirning turli usullaridan foydalaniladi. Badiiy tasvir juda keng tushuncha sanalib, asar uslubining muhim jihatlarini belgilab beradi. “Badiiy asar uslubi faqat uning tiliga oid hodisa emas, balki tasvir vositalari, badiiy so‘z orqali ifodalangan badiiy asarning mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi kabi unsurlariga ham taalluqlidir”. Bularning barchasi badiiy tasvirning unsurlari sifatida badiiy yaratqida o‘z o‘rniga ega sanaladi. Keyingi davr adabiyotida voqeabandlikdan ko‘ra ruhiy ta’sir masalasiga ko‘proq e’tibor berilmoqda.

XX asrning so‘nggi choragiga kelib, o‘zbek adabiyotida ong oqimi, inson ruhiy olamini butun murakkabligi bilan aks ettirish asosiga qurilgan ko‘plab asarlar paydo bo‘ldi. Bugungi kun nasrida inson xotiralari, hayotiy taassurotlarining ijtimoiy asoslarini dalillash, qalb tuyg‘ularini badiiy tadqiq etish, ularni hayotiy haqiqatga yaqinlik ushbu davr nasrining o‘ziga xosligini belgilaydi. Nasrda ijod qilayotgan har bir ijodkordan hayot haqiqatiga yaqin bo‘lgan asarlar yaratish o‘ziga xos mahorat talab qiladi. Psixofiziologik holat yaratish adabiy tur va janrlarda farqli jihatlariga uchraydi. Masalan, lirika bus-butun holda insonning ichki dunyosi, ruhiy olami tasviriga yo‘naltirilgan bo‘ladi, unda psixofiziologik vositalar markaziy o‘rinni egallaydi. Epik va dramatik asarlarda qahramon xarakterini ochiga xizmat qiladi. Dramatik asarlarda bunday tasvir vositalarni qo‘llash imkoni biroz cheklangan bo‘lib, dialog va monologlar orasida voqealar rivojiga mos holda foydalanish mumkin hisoblanadi. Epik asarlarda esa inson ruhiyatini tasvirlashda psixofiziologik vositalardan foydalanish imkoniyati kengroq. Ayni paytda

bu vositalardan foydalanish epik tur janrlararo ham farqli xususiyatlarga ega.

Hikoya hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrdan qahramon ichki ruhiy dunyosini yoritishda psixofiziologik vositalardan foydalanish, “qalb dialektikasi”ni bosqichma-bosqich berish imkoni biroz cheklangan. Hikoyaga xarakterlar tayyor holda kirib keladi. Bunday tasvir vositalari shartli tarzda ishlatiladi. Roman psixologik tahlil uchun keng imkoniyatli janr hisoblanadi. Unda ijtimoiy hayotning badiiy tarixini yaratish bilan birga qalb dialektikasini ham tasvirlaydi. Biz tahlilga tortgan qissa janrida esa muallif hikoyachi-qahramonning ruhiyatiga chuqur kirish imkoniga ega bo‘ladi, sababi qissa janrida voqea, ko‘pincha, biror ishtirokchi bosh qahramon tilidan hikoya qilinadi.

Bu haqida “Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm” mavzusida tadqiqot olib borgan olim M.Boboxonov ham psixologik tahlil uchun janr imkoniyatlariga ko‘ra qissa janrini alohida ta’kidlaydi. “Holbuki, inson ichki dunyosini tasvirlash – psixologizm – bu obrazni qurish, tasvirlash, u yoki bu hayotiy xarakterni tushunib yetish va baholash usuli ekan, qissa janri ham shunday tahlil uchun munosib maydon bo‘la oladi”. Shunday ekan, psixologik va psixofiziologik tasvir yaratish mahorati qissa janrida ham roman kabi keng imkoniyatlarga ega deb hisoblaymiz. Muallif urush xotiralari haqida bergan intervyularining birida aytganidek: Inson ming qahramonlik ruhida tarbiyalanmasin, baribir o‘ylanadi, qaytib kelarmikinman deb. Menimcha, hamma urushga borganlarning xayolida shu bor bo‘ladi. U yerdagi askarlarning ko‘rinishi ham bir ahvol, yuzlari sarg‘aygan, nursiz deydi. Tadqiqotchi G.Ximmatova Qo‘chqor

Norqobil nasri haqida gapirganda, qahramonlar ichki dunyosini nafaqat kechinmalar, ruhiy evrilishlar, ziddiyatlar orqali, balki ularning tashqi qiyofasi: yuz-ko'z ifodasi, mimika, imo-ishora, yig'i, kulgi, singari xatti-harakatlar orqali ham mahorat bilan tasvirlanganini aytadi.

Ana shunday ruhiy holat masalasi yozuvchining "Daryo ortidagi yig'i" qissasida ochib berilgan. Yozuvchi urush davri voqealarini boshqa ijodkorlar asarlaridan farqli holda tasvirlaydi deya olmaymiz, lekin qahramon ichki ruhiy holati aniq ko'zga ko'rinib turadi deyish mumkin. Bu qissada komandir va Andrey o'rtasidagi qisqa suhbatda ularning ruhiy holatidagi taranglikka guvoh bo'lamiz. Ular to'asari so'ngiga qadar urush maydonida jang qiladi.

– O'rtoq leytenant! Hozir biz ketayotgan mashina minaga tushib, barimiz o'lib ketsak, ittifoqdagilar nima deb xotirlashadi, – kinoya bilan so'radi Andrey Bochkaryov.

– Albatta, og'ir janglarning birida portlab ketishdi, qahramonlarcha halok bo'ldilar, jasurlik ko'rsatdilar, deyishadi – deb kesatdi ukrain Yuxumuk.

Komandir bosh egdi. Gapimizdan iztirob zohir yuzida qahrli jilmayish paydo bo'ldi. Bu yig'i bilan barobar edi.

Mazkur parchada urush qatnashchisi Andrey Bochkaryovning mina qo'yilgan hududda qolib ketgandagi ruhiy holati berilgan. Andrey garchand o'z xohishi bilan urushga kelmagan bo'lsa-da, urushda nom qozonib qahramon bo'lishni xohlardi. U zobitga kinoyali gapiradi. Unga javoban Yuxumik ham kesatib fikr bildiradi. Bu holatga komandir bosh eggani, yuzida qahrli jilmayish orqali berilgan psixofiziologik tasvir uning ruhiy iztirobidan darak beradi. Bu holatda komandirning yuzidagi qahrli jilmayish mimikasi yig'i bilan barobardir. Urush dahshatini va asar qahramonining ruhiy holatida bo'layotgan o'zgarish kitobxon ruhiyatini ham o'zgartirib yuboradi. Urush qatnashchilari noilojlikdan jilmayayotgani yig'i bilan barobar ekanining o'zi urush davri voqealarini ko'z oldimizda jonli gavdalantirib turibdi. Bunday tasvir vositalarini qo'llash orqali qahramonning ichki va tashqi ruhiy holatini yanada aniqroq tasvirlab berish yozuvchi Qo'chqor Norqobilning badiiy mahoratidir. Ijodkorning tarjimai holi, bosib o'tgan hayot yo'li uning asarlari qo'liga singib ketadi. Q.Norqobilning aksariyat asarlarida uning o'zi qahramon sifatida ko'rinadi. Adib ushbu asarlarida bor haqiqatni yozar ekan, uni kitobxon ongiga kuchli yetib borishi uchun jest va mimikalardan ham o'rinni foydalandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бобохонов М. Қиссаларда: Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм: Фил. фанлари номзоди...диссертацияси. – Тошкент, 2012. – Б-31
2. Химматова Г.А. Қўчқор Норқобил насрида давр ва шахс талқини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертация. Термиз. 2021. Б.7
3. Norqobil Q. Osmon ortidagi yig'i: Toshkent, 1994, 12-bet